

24-dars

Darsning mavzusi: Buyruq gap (62 – 64-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: gap, uning turlari haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Qabul qilingan yangi ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikmasini shakllantirish, o'zining xato va kamchiliklarini tushunib, o'zini nazorat qila olsih va xatolarini tuzatishga kirishish; mustaqil o'qib-o'rghanish va bilimini muntazam oshirib borishga o'rgatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Dars turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, ko'rgazmalilik, "Tezda javob top!" ta'limiy o'yini

Darsning jahozi: mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar.

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Salomatlik – tuman boylik.

O'tilgan mavzular yuzasidan "Diqqat bolalar!" ta'limiy o'yini o'tkaziladi.

Buning uchun o'qituvchi gaplar yozilgan tarqatmalarni teskari holatda qo'yadi, o'quvchi esa qaysi tarqatmani olsa, uning qanday gap ekanligini tezda aytishi kerak bo'ladi. Buni bir necha marotaba takrorlab o'quvchilarning og'zaki nutqlarini aniqlash va baholash mumkin.

III.Mustahkamlash.

62-mashq “Tezda javob top!” ta’limiy o‘yini shaklida o’tkaziladi. O‘quvchilarga savollar beriladi. Quyidagi savollarga tezkor javob bering va o‘z bilimingizni sinab ko‘ring.

1. Gapning maqsadga ko‘ra turlarini aytинг.
 2. Darak gap deb nimaga aytildi?
 3. Buyruq gapga misollar keltiring?
 4. Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar qanday gaplar deyiladi?
 5. Nuqta, so‘roq va undov belgilari qanday ataladi?
 6. Maqolni davom ettiring.
- Darslikda berilgan 63-mashq quyidagi o‘yin orqali bajarilishi mumkin.



IV. Darsga yakun yasash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda o‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

64-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.